



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: **Uzbek,** English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING ASARLARIDA OKKAZIONAL SO'ZLARNING QO'LLANISHI

Umida Usmonbekova Islombek qizi,

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili
va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **M.Qurbonova** f.f.d(PhD)

90-842-81-87 umidausmonbekova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida okkazional (o'ziga xos, yangi yaratilgan) so'zlarning qo'llanishi haqida so'z boradi. Bu so'zlar ko'p hollarda, asar qahramonlarining nutqini boyitish maqsadida qo'llanilgan.

Abstarct: This article discusses the use of occasional (new created) words in novels of Khudayberdi Tokhtaboyev. These are often used to enrich the speech of the characters in novels.

Kalit so'zlar: Xudoyberdi To'xtaboyev, so'z, asar, okkazional, sehrli qalpoqcha.

Keywords: Khudayberdi Tokhtaboyev, word, novel, occasional, magic hat.

Xudoyberdi To'xtaboyev qator nashriyot va jurnallarda faoliyat ko'rsatgan. 1958-yil badiiy ijodga kirib kelgan. Adibning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Shirin qovunlar mamlakati", "Quyvonlar saltanati" kabi asarlari o'quvchi- yoshlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Shuningdek, yozuvchining "Sehrli qalpoqcha" ertak-qissasi 1970-yilgi Butun ittifoq tanlovida eng yaxshi bolalar kitobi mukofotiga loyiq deb topilgan.¹ "Asarlari rus, ingliz, fransuz, nemis tillariga tarjima qilinib, dunyoning 28 ta mamlakatida nashr etilgan.² Xudoyberdi To'xtaboyev bugungi kunda o'zbek bolalar adabiyotining zabardast vakiliga aylandi. Uni mamlakatimizdagi jamiki kitobsevar bolalar yaxshi bilishadi",- deya ta'kidlab o'tgan Said Ahmad.³ "Menga tanishish va tarjimaga tavsiya etish uchun taqdim etilgan yozuvchilar orasida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha" nomli asari yumorga boy bo'lganligi va fantaziyasi benihoya keng bo'lganligi sababli ma'qul keldi. Ushbu yumor va fantaziya dan italyan bolalari ham bahra olsin, deb men ushbu asardan bir bob tarjima qilib berdim",- deb yozgan edi olis 1971-yilda olis italiyalik jahonga mashhur bolalar yozuvchisi Janni Rodari.⁴

"Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflash kerak emas",-deya ta'kidlagan atoqli yozuvchi Abdulla Qahhor. Adabiyot rang-barang va shu bilan birga, qudratli so'zlar yig'indisidir, shunday ekan, unda mavjud so'zlardan yangi iboralar yaratish xoh yozuvchi bo'lsin, xoh shoir bu uning nechog'lik mahorat egasi ekanini kitobxonga oshkor etadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'z ta'biri bilan aytganda, yosh og'aynilariga atab yozgan asarlaridagi o'ziga xos, yangi yaratilgan so'zlar o'quvchining diqqatini tortadi. Quyida ulardan bir nechtasini ko'rib o'tilgan:





1. Sariq dev shunchalik qo'rqinchak ekanki, hattto sichqon ko'rsa ham titrab ketardi.
"Qo'rqinchak" so'zi juda qo'rqqoq, har narsadan cho'chiydigan kishi.
2. Onam yana gapxo'r qo'shniga boribdi, soatlab qaytmaydi.
"Gapxo'r" so'zi ko'p gapiradigan boshqalar haqida soatlab gapirib o'tiradigan ayol.
3. To'g'risini aytsam, men ham o'sha paytta ozgina devxayol edim, nima bo'lsa ham orzularim osmonda yurardi.
"Devxayol" so'zi haddan tashqari orzuchan, xayolparast bola.
4. Hammani hayron qoldirgan bu televizorbola endi maktabning eng mashhur o'quvchisiga aylandi.
"Televizorbola" so'zi bola peshonasiga televizor yopishgani sababli shunday atalyapti.
5. Kosadagi serqaymoq sutlardan bir ho'plam ichib, farzandi, nabiralari, ayniqsa, mehribon kelinidan mingdan ming rozi ekanligini takror-takror aytib, qazo muddati yaqinlashib qolgan ekan, o'sha zahotiyoyq omonatini topshiribdi.
"Serqaymoq" so'zi qaymog'i ko'p bo'lganligidan shunday atalgan.
6. Ancha vaqtdan buyon direktorimiz nomiga to'rt-beshtamiz birlashib, talabnoma yozmoqchi bo'lib yuruvdik.
"Talabnoma" so'zi ma'lum bir narsa talab qilish maqsadida yozilganligi uchun shunday nomlangan.
7. Ular bu yilgi hosilni "shakarqovunjon" deb atashga qaror qilishdi
"Shakarqovunjon" so'zi qovunning juda shirinligini ifodalash uchun shunday atalyapti.
8. Har joy-har joyda paydo bo'lgan ko'loblar yuzida notiqlarning nutqi yozilgan qog'ozlar, bolalar tashlab qochgan yelim qo'g'irchoqlar suzib yuribdi.
"Ko'loblar" so'zi yomg'irdan so'ng paydo bo'ladigan ko'lmak so'ziga o'rindosh vazifasida qo'llanilgan.
9. Bolalar qovunlarni aravaga ortib, "qovunvagon" deb atashdi.
"Qovunvagon" so'zi qovunga oid o'yinli tasvir.

Yuqorida keltirilgan so'zlar asarlardagi ayrimlari xolos. Agar yana ham chuqurroq, qunt bilan izlanadigan, sinchiklab o'qiladigan bo'lsa, so'zlarning sehdidan, ularning boy ma'nolaridan hikoyaning mazmun-mohiyatini qaytadan kashf qilish mumkin.

Asarda okkazonal so'zlar nimaga xizmat qiladi? Avvalo, badiiy tasvirni kuchaytirsh: Okkazonal so'zlar orqali yozuvchi obrazlarini aniq va ta'sirchan tasvirlashga erishadi.

Yangi ma'no qatlamlari: Bu so'zlar asarga chuqurroq ma'no qatlamlarini qo'shadi va kitobxonning tasavvurini ishga soladi.





Tilga bo'lgan mahorat: Okkazional so'zlardan foydalanish Xudoyberdi To'xtaboyevning o'zbek tilini mukammal bilishini va uning imkoniyatlaridan mohirona foydalana olishini ko'rsatadi.

Qiziqarli o'qish: Bu uslub asarni yanada qiziqarli va o'ziga xos qiladi, o'quvchini zeriktirmaydi. Bunga misol o'laroq Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariqdek yashil uy" kabi asarini o'qib ko'rishimiz mumkin.

Xudoyberdi To'xtaboyev bilan suhbatlardan birida muharrirning "Nega aynan bolalar adabiyotini tanlagansiz?"-degan savoliga javoban: "Bolalarga moslab yozish qiyin, bolalarga yozish, uning ruhiga tenglashib olish",- degan edi.⁸ Bunday mas'uliyatli vazifani ado eta olgan sevimli yozuvchimiz bizga va kitobxon bolajonlarga bebaho meros qoldirgan.

Adabiyotlar:

1. arboblar.uz
2. Yangi asr avlodi
3. Said Ahmad. 2000-yil 19-yanvar
5. Xudoyberdi To'xtaboyev. "Sariq devni minib" asari. 1969-yil
6. Xudoybedi To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha" asari. 2012-yil
7. Xudoyberdi To'xtaboyev. "Peshonasiga televizor yopishgan bola" asari. 2019-yil
8. Xudoybedi To'xtaboyev. "Shirin qovunlar mamlakati" asari. 1986-yil
9. Orif Tolib suhbatlashdi. 2010

